XIX–XX ASRLARDA NUROTA VOHASIDA AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIK RIVOJI ASOSIY JIHATLARI: (gilamchilik va kashtachilik misolida)

Tashmurodov Ravshan Suvanovich
Toshkent davlat texnika universiteti.t.ravshan@gmail.com тел: (93)532-47-89
Ташмуродов Равшан Суванович
Ташкентский государственный технический университет E-mail: t.ravshan@gmail.com
Тел.: +998 (93) 532-47-89
Tashmurodov Ravshan Suvanovich
Tashkent State Technical University E-mail: t.ravshan@gmail.com
Tel.: +998 (93) 532-47-89

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada XIX–XX asrlarda Nurota vohasida an'anaviy hunarmandchilikning rivojlanish jarayoni, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda hunarmandchilik tarmoqlari ichida ayniqsa gilamchilik va kashtachilik hunarlarining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda mahalliy aholi turmush tarzida tutgan o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, tabiiy-geografik sharoit, mahalliy xomashyo manbalari va xotin-qizlar mehnatining ushbu hunarlar rivojidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada Nurota gilamlari va kashtachilik an'analari milliy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Nurota vohasi, an'anaviy hunarmandchilik, gilamchilik, kashtachilik, xalq amaliy san'ati, to'qimachilik, XIX–XX asrlar.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются основные аспекты развития традиционного ремесленничества в Нуратинской оазисе в XIX–XX веках, а также его связь с социально-экономическими и культурными факторами. Особое внимание уделяется формированию и этапам развития ковроткачества и вышивки как наиболее распространённых видов ремесел региона. Анализируется роль природно-географических условий, местной сырьевой базы и труда женщин в развитии данных ремесел. Подчёркивается значение нуратинских ковров и вышивки как важной составляющей национального культурного наследия.

Ключевые слова: *Нуратинский оазис, традиционные ремесла, ковроткачество, вышивка, народное прикладное искусство, ткачество, XIX–XX века.*

ABSTRACT

This article examines the key aspects of the development of traditional handicrafts in the Nurata Oasis during the nineteenth and twentieth centuries, as well as their relationship with socio-economic and cultural factors. Particular attention is paid to the formation and stages of development of carpet weaving and embroidery as the most widespread types of handicrafts in the region. The study analyzes the role of natural and geographical conditions, local raw material resources, and women's labor in the development of these crafts. The significance of Nurata carpets and embroidery is emphasized as an essential component of the national cultural heritage.

Keywords: Nurata Oasis, traditional handicrafts, carpet weaving, embroidery, folk applied art, textile production, nineteenth–twentieth centuries.

XIX–XX asrlar davomida Nurota vohasi an'anaviy hunarmandchiligi tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni mazmun va davriy xususiyatlariga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. O‘rta Osiyoning Rossiya imperiyasi hamda sovetlar davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar;
2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar;
3. Mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan ishlar.

Birinchi guruh manbalarga O‘rta Osiyoga turli xizmat va tadqiqot maqsadlarida kelgan xorijlik sayyohlar hamda mahalliy mualliflar tomonidan yaratilgan asarlar kiradi. Ushbu manbalarda Buxoro amirligi, jumladan Nurota bekligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holati, o‘lkadan olib ketilgan xom ashyo hamda hunarmandchilik mahsulotlari, aholining etnik tarkibi, turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatiga oid ma'lumotlar aks etgan. Shu bilan birga, mazkur asarlarda Nurota vohasi hunarmandchiligi tarixiga oid ma'lumotlar tizimli ravishda berilmagan bo‘lsa-da, ayrim hunarmandchilik sohalari haqida qisqa ma'lumotlar uchraydi.

Xususan, A. Byorns, A.P. Fedchenko, P.I. Nebolsin, A.Vamberi, N.F. Petrovskiy, A. Kun, K.K. Palen, V.I. Masalskiy kabi mualliflar asarlari Nurota vohasida hunarmandchilikning ayrim tarmoqlarini o‘rganishda qo‘shimcha manba sifatida ahamiyat kasb etadi[1].

Ikkinchi guruh manbalarga Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan hamda sovetlar davrida nashr etilgan tarix, etnografiya, arxeologiya va san'atshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlar kiradi. Ushbu asarlarda hunarmandchilik xo‘jalik hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida yoritilgan. Xususan, A. Semyonovning «Buxoro mang‘itlari tarixi» asarida Buxoro amirligi hududlarida, jumladan Nurota vohasida hunarmandchilikning ayrim sohalariga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

1917 yilgacha bo‘lgan davrda o‘zbek gilamchiligi tarixiga oid ma'lumotlar I. Krauze, N.E. Simakov, V.V. Stasov, S.A. Davidova, S.M. Dudin va A.A. Felkersam kabi

[1] Давыдова С.А. Кустарная промышленность России. Т. II. – СПб., 1894.; Дудин С.М. Ковровые изделия Средней Азии // Сб. МАЭ. Т. VII. – Л., 1928.; Маев Н. Бухоро хонлиги очерклари. – Тошкент, 2012.; Семёнов А. История Бухарских мангитов // Бюллетень САГУ. Вып. 4. – Ташкент, 1924.

tadqiqotchilar ishlarida jamlangan. Sovetlar davrida esa gilamdo'zlik va to'qimachilik tarixi M.S. Andreev, M.F. Gavrilov, A.A. Semyonov hamda V.G. Moshkova tomonidan tizimli o'rganilgan.

Sovet olimlari V.G. Grigorev, A.O. Suxareva, R.G. Muqminova, Ye.M. Pesherova, M.K. Raximov va boshqalarning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo xalqlariga xos to'qimachilik, kulolchilik, xom ashyo manbalari, ish qurollari, mahsulot shakllari va ishlab chiqarish jarayonlari yoritilgan. Ayniqsa, Nurota vohasida milliy hunarmandchilik va to'qimachilikning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga oid ma'lumotlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, V.G. Moshkova kashtachilik, zardo'zlik va gilamdo'zlik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlarini, B.X. Karmisheva esa uy sharoitida mato, kiyim-kechak va charm mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ularni qayta ishlash usullarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan[2].

Ikkinchi davrga oid tadqiqotlar mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy ishlar bilan tavsiflanib, ular hunarmandchilik tarixiga xolis yondashuvi hamda manba bazasining kengligi bilan ajralib turadi. Q. Jumaev, S. Turaeva, M. Hamidova, R. Qilichev, S.T. Davlatovalarning tadqiqotlarida Nurota vohasi aholisi hunarmandchiligi, jumladan to'qimachilik va gilamchilik sohalarini o'rganishda qiyosiy materiallar mavjud[3].

Shuningdek, N.X. Azizova, M.V. Sazonova, N.G. Boronza, N.S. Sodiqova, A.I. Sidorenko, A.R. Artikov, R.R. Radjabov va boshqa tadqiqotchilar muzey eksponatlari asosida an'anaviy hunarmandchilik buyumlarini tadqiq etgan bo'lib, ularda to'qimachilik

[2] Фелькерзам А.А. Старинные ковры Средней Азии // Старые годы. – 1914–1915.; Андреев М.С. Орнамент горных таджиков и киргизов Памира. – Ташкент, 1928.;Гаврилов М.Ф. Ткацкое искусство узбекской женщины // Народное хозяйство Средней Азии. – Ташкент, 1927. – № 1–2.; Семёнов А.А. Ковры русского Туркестана // Этнографическое обозрение. – 1911. – Кн. 88–89. – С. 1–43.; Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX вв. – Ташкент: Фан, 1970.; Кармышева Б.Х. Новые материалы по этнографии населения Нуратинского хребта. – М.: Наука, 1978. – С. 156.

[3] Кармышева Б.Х. Новые материалы по этнографии населения Нуратинского хребта. – М.: Наука, 1978. – С. 156.; Агзамова Г.А. Ўрта Осиё хонликларида ҳунармандчилик ва савдо. – Тошкент, 2000. – 348 б.; Мусаев Н. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Тошкент, 2008.; Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Тошкент, 2013. – 440 б.; Ҳакимов А. Бойсун каштаси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2004. №1. – Б. 2–7.; Ўроқов Б. Зарафшон воҳаси қишлоқ аҳолисининг хонаки тўқимачилик ҳунарлари. – Тошкент, 1993. – 156 б.; Қиличев Р. Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Бухоро, 1997. – 185 б.

mahsulotlari, gilamlar, kiyim-kechaklar va bezak buyumlarining shakli, ornamentikasi hamda ishlab chiqarish xususiyatlari yoritilgan[4].

Qator dissertasion tadqiqotlarda tarixiy, etnografik va arxeologik yondashuvlar asosida Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan hududlar, jumladan Nurota vohasida to'qimachilik va gilamchilik rivoji qiyosiy tahlil qilingan. «O'zbekistonning badiiy hunarmandchiligi atlasi» hamda turli ilmiy nashrlarda an'anaviy to'qimachilik va chevarchilik hunarlarining rivojlanish bosqichlari qisqacha yoritilgan.

Davriy nashrlar va san'atshunoslik tadqiqotlarida esa Nurota vohasi to'qimachilik va gilamchilik mahsulotlarida qo'llanilgan ornament-bezaklar, ularning ma'no-mazmuni hamda tashqi madaniy ta'sirlar ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Uchinchi guruhga mahalliy tadqiqotchilar tomonidan hunarmandchilikning gilamdo'zlik, kashtado'zlik, so'zanachilik hamda do'ppido'zlik kabi to'qish va tikishga oid sohalarini o'rganishga bag'ishlangan ishlar kiradi. Ularga professor S.N.Tursunov[5], E.A.Qabulov[6], T.R.Pardaev[7], N.Tursunov[8] va boshqalarning tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin. Umuman olganda, bu sohada hali tizimli ishlar yaratilgan emas. Bu esa ushbu ishning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Nurota vohasining shahar va qo'rg'onlarida an'anaviy hunarmandchilik turlari qadimdan shakllangan bo'lib, XVI–XX asrlarda ular yanada rivojlangan. Katta qishloq va aholi manzillarida kulolchilik, misgarlik, temirchilik, to'qimachilik, gilamchilik, kashtachilik, do'ppido'zlik, poyabzalchilik hamda egar-jabduq tayyorlash kabi hunar turlari mavjud bo'lgan. Bu sohalar, ayniqsa Nurota, Qo'shrabot, Jo'shota va Forish kabi aholi zich

---

[4] Жумаев Қ.Ж. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоронинг анъанавий каштадўзлик санъати. – Тошкент, 2003. – 158 б.; Ҳамидова М. XIX–XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихи. – Тошкент, 2009. – 142 б.; Давлатова С.Т. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари анъанавий ҳунармандчилиги. – Тошкент, 2019. – 270 б.; Atlas of Central Asian artistic crafts and trades. – Tashkent, 1997. – P. 158.; Алиева С. Риштоннинг мовий сополи // Санъат. – Тошкент, 1998. – Б. 34–35.; Насирова З. «Оқ-енли» гилами: пайдо бўлиши ва бадиий хусусиятлари // Санъат. – Тошкент, 2008. – Б. 23–26.; Абдуллаева Ш. Узбекская традиционная вышивка. – Ташкент, 2001. – С. 21.

[5] Турсунов С., Пардаев Т., Қурбонов А., Турсунов Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти-Сурхондарё этнографияси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006.; Турсунов С.Н., Ешбоев Қ. Шўрчи тарихидан лавҳалар. Тошкент: Фан ва технология, 2013.

[6] Қабулов Е.А. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори (ДСс) диссертацияси. –Тошкент, 2018.

[7] Пардаев Т.Р. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт (1945-1991 й.). Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси. –Термиз, 2021.

[8] Турсунов Н.Н. Жанубий Ўзбекистон аҳолиси моддий маданиятидаги трансформацион жараёнлар. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси. –Термиз, 2021.

joylashgan markazlarda rivojlanib, chorvador aholi xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat yuritgan.

Nurota vohasi hunarmandchiligida to'qimachilik, gilamchilik va kashtachilik yetakchi o'rin tutgan. Ushbu hunar turlari, avvalo, hududning tabiiy-geografik sharoiti, chorvachilik xo'jaligining ustuvorligi hamda mahalliy aholining turmush tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Jun va tabiiy tolalardan tayyorlangan gilamlar, olachalar, xo'rjunlar va boshqa to'qima buyumlar mahalliy ehtiyoj bilan bir qatorda ayirboshlash va savdo munosabatlarida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Kashtachilik esa asosan uy sharoitida rivojlanib, so'zana, kiyim-kechak va maishiy buyumlarni bezashda qo'llanilgan. Nurota vohasi kashtachilik namunasida ornamentlar soddaligi, tabiiy ranglar ustuvorligi va ramziy mazmunning saqlanganligi bilan ajralib turadi. Gilamchilikda esa geometrik naqshlar, mahalliy uslubga xos kompozisiyalar hamda amaliy vazifa bilan badiiylik uyg'unligi kuzatiladi.

Hunarmandlar, odatda, shahar va qo'rg'onlardagi maxsus guzarlarda istiqomat qilgan bo'lib, guzar nomlari ko'pincha ular shug'ullangan kasbga bog'liq holda shakllangan. Nurota shahrida Kuloliy, Misgarlar, Zargarlar kabi guzarlar mavjud bo'lgani manbalarda qayd etilgan. Bozorlar va mavsumiy yarmarkalar hunarmandchilik mahsulotlarini tarqatish va ayirboshlashda muhim o'rin tutgan.

Nurota vohasida kulolchilik va temirchilik yetakchi hunar tarmoqlari hisoblangan. Kulolchilikda sirlangan va sirlanmagan idishlar, ko'zalar, xumlar, shamchiroqlar va maishiy buyumlar ishlab chiqarilgan. Temirchilik esa qishloq xo'jaligi asbob-uskunalari, uy-ro'zg'or buyumlari hamda chorvachilikka oid jihozlar tayyorlashga ixtisoslashgan. Mahalliy temirchi ustalar o'z mahsulotlarini asosan bozor rastalari orqali tarqatganlar.

Nurota vohasi va unga tutash Miyonkol hududlarida hunarmandchilik mahalliy aholining iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallagan. Ayniqsa, bahorgi yarmarkalarda qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga mos temirchilik buyumlarining keng savdosi hunarmandchilikning dehqonchilik va chorvachilik bilan uzviy bog'liq rivojlanganini ko'rsatadi.

Dahbed, Payshanba va Yangiqo'rg'on shaharlari hunarmandchilik markazlari sifatida shakllanib, bu yerlarda to'qimachilik, kulolchilik va temirchilik yetakchi tarmoqlar

hisoblangan. Payshanba atrofida mato to‘qish va terini qayta ishlash keng tarqalgan bo‘lsa, Yangiqo‘rg‘on kulollarining mahsulotlari sifati bilan ajralib, mintaqa bozorlarida talabga ega bo‘lgan. Umuman, Nurota vohasi hunarmandchiligi mahalliy ehtiyojni qondirish barobarida hududlararo savdo munosabatlarida ham muhim o‘rin tutgan.

Nurota vohasida an'anaviy hunarmandchilik tarixan mahalliy aholining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotida muhim o‘rin tutgan. Hunarmandchilikning turli sohalari rivojlangan bo‘lsa-da, ular orasida gilamchilik va kashtachilik, xususan zardo‘zlik, yetakchi va barqaror tarmoqlar sifatida ajralib turadi.

Gilamchilik asosan uy-ro‘zg‘or hunarmandchiligi shaklida rivojlangan bo‘lib, bu ish bilan asosan xotin-qizlar shug‘ullangan. Gilam to‘qish nafaqat mehnat jarayoni, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi an'ana sifatida ham ahamiyat kasb etgan. Qiz-juvonlar gilam to‘qish jarayonida hasharlarga yig‘ilib, o‘zaro muloqot, gap-gashtak va qo‘shiqlar orqali xalq og‘zaki ijodi namunalarini avloddan-avlodga yetkazganlar. Ayniqsa, “o‘rmak qo‘shiqlari”ning shakllanishi bevosita gilamchilik an'analari bilan bog‘liqdir.

Gilam to‘qishda ip avval yigirilib, tabiiy ranglar bilan bo‘yalgan. Rang berishda o‘simliklardan olingan tabiiy buyoqlar qo‘llanilgan bo‘lib, bu jarayon maxsus ustaxonalarda yoki uy sharoitida amalga oshirilgan. Tayyor gilamlar va to‘qima mahsulotlar mahalliy bozorlarda sotilgan, bu esa gilamchilikning iqtisodiy ahamiyatini oshirgan.

Kashtachilik, ayniqsa zardo‘zlik san'ati Nurota vohasida xalq amaliy bezak san'atining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Zardo‘zlik — zar iplar, ya'ni oltin va kumushsimon metall iplar yordamida naqsh tikish san'ati bo‘lib, u ko‘p asrlik tarix va mustahkam an'analarga ega. Zardo‘zlikda asosan ipak va paxta matolar qo‘llanilib, naqshlar oldindan karton shaklda tayyorlanib, korcho‘pga tortilgan matoga tikilgan.

Zardo‘zlikda naqsh tikishning o‘nlab klassik usullari mavjud bo‘lib, ular asosan zamindo‘zi va guldo‘zi turlariga ajratiladi. Naqshlarda xalqning estetik didi, madaniy qarashlari va ma'naviy dunyosi o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan zardo‘zlik nafaqat hunarmandchilik turi, balki muhim tarixiy-etnografik manba sifatida ham ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, Nurota vohasida an'anaviy hunarmandchilik qadimdan shakllangan an'analar asosida rivojlanib, mahalliy turmush tarzi va tabiiy-

geografik sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etgan. Vohada, ayniqsa, to'qimachilikka oid hunarlar ustuvor ahamiyat kasb etib, hunarmandlar asta-sekin shaxsiy ustaxona va bozor savdosiga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qatlam sifatida shakllangan.

Qurg'oqchil iqlim mintaqasi bo'lgan Nurota vohasida sharoit tufayli hunarmandchilik faoliyati asosan aholi gavjum yashagan shahar va qishloq markazlarida saqlanib qolgan hamda qishloq xo'jaligi va chorvador aholining maishiy ehtiyojlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish bilan cheklangan.

Nurota vohasida xotin-qizlar mehnatiga tayangan gilamchilik, kashtachilik va zardo'zlik kabi to'qimachilik hunarlari boshqa sohalarga nisbatan tezroq rivojlanib, o'zining o'ziga xos mahalliy maktabini yaratdi. Ushbu xalq amaliy san'ati namunalari milliy qadriyatlarni saqlash, madaniy merosni asrash va kelajak avlodda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Семёнов А.А. История Бухарских мангитов // *Бюллетень САГУ*. Вып. 4. – Ташкент, 1924.
2. Мошкова В.Г. *Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX вв.* – Ташкент: Фан, 1970.
3. Кармышева Б.Х. *Новые материалы по этнографии населения Нуратинского хребта*. – М.: Наука, 1978.
4. Агзамова Г.А. *Ўрта Осиё хонликларида ҳунармандчилик ва савдо*. – Тошкент, 2000.
5. Мусаев Н. *XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши*. – Тошкент, 2008.
6. Зияева Д. *Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида*. – Тошкент, 2013.
7. Ҳакимов А. Бойсун каштаси // *Мозийдан садо*. – Тошкент, 2004. – №1.
8. Жумаев Қ.Ж. *XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоронинг анъанавий каштадўзлик санъати*. – Тошкент, 2003.
9. Ҳамидова М. *XIX–XX аср бошларида Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихи*. – Тошкент, 2009.
10. Давлатова С.Т. *Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари анъанавий ҳунармандчилиги*. – Тошкент, 2019.
11. *Atlas of Central Asian artistic crafts and trades*. – Tashkent, 1997.
12. Алиева С. Риштоннинг мовий сополи // *Санъат*. – Тошкент, 1998.
13. Насирова З. «Оқ-енли» гилами: пайдо бўлиши ва бадиий хусусиятлари // *Санъат*. – Тошкент, 2008.
14. Абдуллаева Ш. *Узбекская традиционная вышивка*. – Ташкент, 2001.